

# SHARTNOMA № SH-5

Andijon shahar

07 01 2022 yil

Biz kim ushbu shartnomani tuzib imzo chekuvchilar, O'z nizomi asosida ish yurituvchi «MAKRO FARM ANDIJAN» MCHJ rahbari B.D.Tojidinov kelgusida «Ta'minotchi» deb nomlanadi, Ikkinchi tomondan o'z nizom asosida ish yurituvchi «Aug'ul Rijn mablag'li mablag'li mablag'li mablag'li» nomidan uning rahbari Allo. Muxitov kelgusida «Haridor» deb nomlanib, quyidagi mavzuda kelishuv shartnomasini tuzdilar:

## 1. SHARTNOMA MAZMUNI

- 1.1. Mazkur shartnoma bo'yicha «MAKRO FARM ANDIJAN» MCHJ tomonidan (keyingi o'rinlarda Ta'minotchi) Haridorning talabnomasi bilan hayotiy zarur dori-darmonlar, tibbiy ash'yolar, va sterillangan dorilarni 1-ilova (specifikaciya) asosida tovarlarni sotadi. Shartnomaga asosan tavarlarning nomi, miqdori, narhi ushbu shartnomaning ajralmas qismi bo'lgan 1-ilovada ko'rsatiladi.
- 1.2. Sotib oluvchi (keyingi o'rinlarda haridor) esa olingan mahsulot uchun to'liq haq to'lash majburiyatini o'z zimasi oladi.
- 1.3. **Shartnomaning umumiy bahosi 4 275 000 (to'rt million ikki yuz yetmish besh ming) so'm.**  
(Ushbu summaga transportda etkazib berish harajati kirmaydi)

№	Dori darmonlar nomi	O'/b	soni	narhi	QQS	Jami narhi
1	Гепарин 5000ЕД 5мл №1	qadoq	50	46 500,00	QQS siz	2 325 000,00
2	Цефтриаксон пор д/р-ра 1г №1	qadoq	500	3 900,00	QQS siz	1 950 000,00
	<b>Jami</b>		<b>550</b>			<b>4 275 000,00</b>

## 2. MAHSULOTNING SIFATI

2.1. «Ta'minotchi» «Haridorga» O'zbekiston Respublikasida Farmakologik ro'yhatdan o'tgan tibbiyotda ishlatilishga ruxsat etilgan. Sifat markirofka va o'ramlari farmaceutik va texnik talablarga javob beradigan hamda sifat sertifikatini yoki tahlil (tekshirish) bayoniga ega bo'lgan dori-darmonlar va tibbiy mahsulotlarni sotadi.

## 3. HISOB KITOB QILISH TARTIBI

- 3.1. Xisob kitob «Haridor» tomonidan pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi
- 3.2. Shartnoma kuchga kirib, tegishli Gaznachilik bo'limidan ro'yhatdan o'tgandan so'ng 5-ish kunida «Haridor» etkazib beriladigan mahsulotlarning umumiy summasining 30% (foizi) yani **1 282 500** (bir million ikki yuz sakon ikki ming besh yuz) so'mni oldindan «Ta'minotchi» ning hisob raqamiga o'tkazib beradi.
- 3.3. «Haridor» tomonidan 30% oldindan to'lov amalga oshirilgandan so'ng «Ta'minotchi» 60 bank ish kunida mazkur shartnomada ko'rsatilgan miqdorda va narxlarda Davlat standartlariga javob beradigan tibbiy-buyumlar mahsulotlarini «Haridor»ga etkazib beradi.
- 3.4. «Haridor» qolgan 70% yani **2 992 500** (ikki million to'qqiz yuz to'qson ikki ming besh yuz) so'm mablag'ni 10 bank ish kunida «Ta'minotchi» hisob raqamiga o'tkazib berish majburiyatini oladi.

## 4. TOMONLAR MAJBURIYATLARI

- 4.1. «Ta'minotchi» mahsulot sifatini, miqdorini, muddatini kafolatlaydi. Sertifikat va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlaydi
- 4.2 Tomonlar boshqa tomonning hujjatini rasmiylashtirilishi uchun javobgar emasdirlar  
- berilgan buyurtmaga asosan etkazib berilgan tovar mahsulotni qabul qilishda asossiz rad etilishi natijasida etkazilgan zarar qoplanishini talab qilish huquqiga ega.  
- Tavar mahsulotni etkazib berish jarayonida «Ta'minotchi» shartnoma shartlarini va narmativlardan chekinishga yo'l qo'yan bo'lsa «Haridor» ning talabi bilan aniqlangan barcha kamchiliklarni 3 kun muddatda bepul tuzatib berish majburiyatini oladi.
- 4.3 «Haridor» ko'rsatilgan shartlar bo'yicha mahsulotni qabul qilib va mahsulot haqqini ko'rsatilgan muddatda to'lashni kafolatlaydi.  
- «Haridor» kamchiliklarni bepul bartaraf etilishini, yoki ta'minlanishi uchun sarflangan harajatlarni talab qilishi huquqiga ega  
- «Haridor» mazkur shartnoma shartlari to'liq bajarmaganligi natijasida etkazilgan zararni qoplashni talab qilish huquqiga ega
- 4.4 «Ta'minotchi» tomonidan berilgan mahsulotlarni qabul qilish jarayoni O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonun hujjatlariga asosida amalga oshiriladi.

## 5. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

- 5.1. «Ta'minotchi» mahsulotni partiyalab berish huquqiga ega.
- 5.2. «Ta'minotchi» o'z vaqtida mahsulot etkazib bermasa har bir kechiktirilgan kun uchun 0,5% penya to'laydi. Biroq bunda penyaning umumiy summasi etkazib berilmagan summaning 50% oshmasligi kerak.
- 5.3. «Haridor» o'z vaqtida mahsulot haqqini to'lamasa har bir kechiktirilgan kun uchun 0,4% penya to'laydi. Biroq bunda penyaning umumiy summasi kechiktirilgan to'lov summasining 50% oshmasligi kerak.
- 5.4. «Haridor» olgan mahsulot uchun sertifikatni boshqa sotuvchidan olgan mahsulotlar uchun foydalansa 5% penya (penya) to'laydi va O'zbekiston Respublikasi qonunlari asosida hal qilinadi.
- 5.5. «Sotuvchi» yoki «Haridor» tomonidan penya yoki penya to'lash shartnoma majburiyatidan ozod etmaydi.
- 5.6. Shartnomaning 2 bandiga asosan «Ta'minotchi» tomonidan sotilgan mahsulot sifatizligi tegishli hujjatlar bilan 3 kun muddatda tasdiqlansa, u holda «Ta'minotchi» sifatiz mahsulotni sifatli mahsulot bilan almashtirib beradi va bu bilan bog'liq barcha harajatlarni o'z zimasi oladi.
- 5.7. «Ta'minotchi»ning hisob varaqasida mahsulot solingan qutilar (tara) idishlar kaytarilishi qayd etilgan bo'lsa qutilar, tara, idishlar 15 kun ichida qaytarilishi shart. Aks holda qutilar idishlar qiymatidan quydagicha jarima to'laydi. 15-kundan kechiktirilsa 50% va 30% undan yuqori kundan kechiktirsa 50% miqdorda penya to'laydi.